



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 190 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi .....   | 10 |
| <a href="#">Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</a>  |    |
| Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv .....   | 13 |
| <a href="#">Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</a>   |    |
| O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...   | 19 |
| <a href="#">Mahmudova Shoira Shavkat qizi</a>  |    |
| O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....  | 25 |
| <a href="#">Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</a>   |    |
| O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....  | 30 |
| <a href="#">Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</a>  |    |
| Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....  | 34 |
| <a href="#">Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</a>   |    |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati .....  | 37 |
| <a href="#">Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</a>  |    |
| "Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ..... | 41 |
| <a href="#">G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</a>   |    |
| Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....                                 | 46 |
| <a href="#">Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</a>   |    |
| Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari .....  | 50 |
| <a href="#">N. Asadov</a>  |    |
| Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....   | 53 |
| <a href="#">G. Xamidova</a>  |    |
| Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri .....  | 56 |
| <a href="#">Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</a>  |    |
| The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality .....   | 59 |
| <a href="#">Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</a>   |    |
| Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....                           | 64 |
| <a href="#">Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</a>  |    |
| Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....                         | 69 |
| <a href="#">Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</a>  |    |
| Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....   | 73 |
| <a href="#">Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</a>  |    |
| O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....   | 77 |
| <a href="#">Azimova Rushana Zokirjon qizi</a>  |    |
| Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari .....                                  | 81 |
| <a href="#">Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</a>  |    |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....  | 86 |
| <a href="#">Qahhorova Sevara Alimardonovna</a>   |    |
| O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....   | 90 |
| <a href="#">Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</a>   |    |



|  |     |
|--|-----|
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni .....  | 93  |
| <i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>   |     |
| Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish .....   | 97  |
| <i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>  |     |
| Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari .....  | 101 |
| <i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>  |     |
| Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish<br>(Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida) .....   | 106 |
| <i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>   |     |
| Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish .....  | 111 |
| <i>Tursunova Surayyo Botir qizi</i>  |     |
| Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda<br>"Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili ..... | 115 |
| <i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>  |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning<br>nazariy jihatlari (Learning outcomes) asosida .....   | 124 |
| <i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>   |     |
| Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari .....   | 128 |
| <i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>  |     |
| Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish .....   | 132 |
| <i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>   |     |
| Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi .....  | 137 |
| <i>Yagafarova Naziliya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>   |     |
| O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi .....  | 142 |
| <i>Baymurotova Mukaddas Xamdamovna</i>   |     |
| Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli .....  | 150 |
| <i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>   |     |
| Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini<br>takomillashtirishning mazmuni .....  | 155 |
| <i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>   |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni .....  | 159 |
| <i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>  |     |
| Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике:<br>лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ .....  | 164 |
| <i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>   |     |
| Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini<br>raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish .....  | 169 |
| <i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>  |     |
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda<br>Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari .....   | 176 |
| <i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>   |     |
| Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati .....  | 181 |
| <i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>  |     |
| Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining<br>metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi .....  | 186 |
| <i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>  |     |



# BOLALARDA ONA TILIDA TINGLASH HISSINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Nurmatova Muxlisa Akmal qizi

Qarshi Axborot Texnologiyalari va Menejment Universiteti  
 Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan milliy o'yin namunalari va ularning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Bolalarni xalq og'zaki ijodi bilan tanishtirish jarayonida qo'llaniladigan usullar, xalq og'zaki merosiga oid vositalar turlari hamda ularning pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, milliy o'yinlarni tashkil etish tamoyillari va ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni ochib berilgan. Ta'limiy faoliyatda milliy o'yinlardan foydalanish orqali bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, jamoa bilan hamkorlikda ishlash malakasini shakllantirish, o'yin jarayonida tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanish hamda o'quv-tarbiyaviy jarayonda faol ishtirok etish motivatsiyasini kuchaytirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy o'yin, kommunikatsiya, kompetensiya, tajriba, tadqiqot, pedagogik modellashtirish, komponent, yondashuv, motivatsiya, kreativlik.

**Abstract:** Examples of national games used in preschool education practice and their pedagogical potential are highlighted. Various methods of introducing children to folk oral art, types of tools used in familiarizing children with folk heritage, and their pedagogical significance are analyzed. The principles of organizing national games and their role in the educational process are also revealed. Special attention is given to the use of national games in educational activities for developing children's communicative skills, teamwork abilities, creative application of knowledge and experience during play, and increasing motivation for active participation in the educational process.

**Key words:** national game, communication, competence, experience, research, pedagogical modeling, component, approach, motivation, creativity.

**Аннотация:** Освещаются примеры народных игр, применяемых в практике дошкольного образования, а также их педагогические возможности. Проанализированы методы ознакомления детей с народным устным творчеством, виды средств, используемых в процессе знакомства с устным народным наследием, и их педагогическое значение. Также раскрыты принципы организации народных игр и их роль в образовательном процессе. Особое внимание уделено использованию народных игр в образовательной деятельности для развития коммуникативных навыков детей, формирования умений работать в коллективе, творческого применения знаний, опыта и навыков в игровой деятельности, а также повышения мотивации к активному участию в учебно-воспитательном процессе.

**Ключевые слова:** национальная игра, коммуникация, компетентность, опыт, исследование, педагогическое моделирование, компонент, подход, мотивация, креативность.

## KIRISH

Ota-onaning ovozi bola uchun bu dunyodagi eng suyuqli ovoz bo'libgina qolmay, uning miyasi rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bolada ona tilida tinglash hissini rivojlantirish ko'pchilik uchun notanishdek tuyulishi mumkin. Biroq bola sog'lom tarzda o'zgaralarni tushunib, ravon so'zlay olishi uchun eshitish hissini muntazam rivojlantirib borish zarur. Bunda eng samarali usul maxsus bolalar ko'rsatuvlari yoki turli qurilmalarning sun'iy ovozlari emas, balki ota-onaning tabiiy ovozi hisoblanadi. Ayniqsa, ona ovozinu tinglagan bola miyasining til bilan bog'liq sohalarida kuchli reaksiya yuzaga keladi. Xususan, bola 0–3 yosh davrida ota-onalar o'z ovozlari unga ko'proq eshittirishlari, ertak va hikoyalarni o'qib berishlari, o'zbek milliy o'yinlarini o'ynatishlari tavsiya etiladi. Vaqti cheklangan ota-onalar esa ertak va hikoyalarni o'z ovozlari audio shaklda yozib, bolalarga eshittirishlari ham foydali hisoblanadi.

Bola 3–7 yosh davrida tarbiyachi-pedagoglarning nutqini diqqat bilan eshitadi va bevosita nutqni o'zlashtirib boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola yangi bilimlarni egallashi ko'p hollarda nazariy tushunchalar bilan cheklanadi. Natijada bola o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llashda qiyinchilikka duch keladi. Bola

o'rganganlarini real hayot bilan bog'lay olishi uchun nafaqat pedagogning, balki oilada ota-onaning ko'magi ham nihoyatda muhimdir. Masalan, bola "baliqlar" haqida nazariy bilim olgan bo'lsa, bu bilimni amaliyot bilan bog'lash maqsadida uni akvariumga yoki baliqlar mavjud bo'lgan joyga olib borish kitobdan o'qishdan ko'ra samaraliroq natija beradi. Bunday tajribalarni muntazam tashkil etish uchun ota-onalar farzandining o'quv jarayonini kuzatib borishi va uni amaliy hayot bilan bog'lash imkoniyatlarini izlab topishi lozim. Bolaning ta'limini pedagoglarga to'liq topshirib qo'yishdan ko'ra, ular bilan hamkorlikda ishlash sifatli ta'limning muhim asoslaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli yoshdagi bolalarning nutq ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida asarni bolalarga tushuntirish, undagi obrazlar va voqea-hodisalarni jonli tarzda ifodalash uchun asar tili ustida ishlash talab etiladi. Chunki bolalar asar tilini o'rganish jarayonida iboralar va so'z birikmalari ustida ishlaydilar. Bu esa bevosita bolalar lug'atini boyitishga hamda so'zlarning fonetik xususiyatlarini anglashga yordam beradi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Katta va maktabga tayyorlov guruhi bolalari quyi guruh bolalariga qaraganda so'zlarni ancha ravon va to'g'ri talaffuz etadilar. Shunga qaramasdan, ularning nutqida ayrim nuqsonlar uchrab turadi. Masalan, "s", "z", "sh", "k", "ch", "p", "b", "r", "y", "l", "ng" tovushlari talaffuzida kamchiliklar ko'proq kuzatiladi. Shu sababli tarbiyachi-pedagoglar va ota-onalar bu kabi muammolarga befarq bo'lmasliklari lozim. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida turli she'r matnlarini, milliy o'yin qo'shiqlarini aytib berishlari va bolalarni ham ularni takrorlashga undashlari mumkin. Misol tariqasida bolajonlar uchun "Oq terakmi, ko'k terak" she'ri o'qib berilishi mumkin <sup>[5, 14]</sup>.

*Keling, qo'shiq aytamiz,  
Qo'shilishib hammamiz.  
Oq terakmi, ko'k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?  
Ola-bula kapalak,  
Orqa sochim jamalak.  
Oq terakmi, ko'k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?  
– Xayri qizaloq kerak.*

Mazkur she'r o'yin bilan birgalikda olib borilsa, bolalar uchun yanada qiziqarli kechadi. Buning uchun tarbiyachi dastlab she'r matnining to'g'ri talaffuzi ustida bolalar bilan ishlaydi. Bolalar ushbu she'r matnidagi "terak" so'zini "teray", "kerak" so'zini "keyak", "qo'shiq" so'zini "qo'siq" tarzida talaffuz qilishlari mumkin. Tarbiyachi nafaqat mashg'ulot davomida, balki mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda, sayr jarayonida hamda didaktik o'yinlar davomida ham to'g'ri talaffuz ustida ishlashi kerak. Tarbiyachi tovush talaffuzining hosil bo'lish o'rniga ham e'tibor qaratishi lozim. Masalan, "r" undoshi tilning orqa tanglayga tegishi va tovush paychalarining titrashi natijasida hosil bo'lishi, "p" undoshi esa ikki labning bir-biriga jipslashishi natijasida o'pkadan chiqayotgan havoning portlab chiqishi orqali yuzaga kelishini bolalar amaliyotida ko'rsatib berishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun hayvonlar ovozlari taqlid qilish yoki buyumlarning nomlarini takror-takror aytirish kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

*La-la-la-la-la alla.  
Ra-ra-ra-ra arra, randa.  
Sha-sha-sha sharshara.  
Sa-sa-sa-sa sa'va, sandiq.*

Bolalarni kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda milliy o'yin texnologiyalarining turlari va ularning pedagogik imkoniyatlari

| O'yin turi                            | Namunalar  | Pedagogik imkoniyatlari   |
|---------------------------------------|--|---|
| <b>Sof harakatdan iborat o'yinlar</b> | "Oq terakmi, ko'k terak", "Kim oladiyo shug'unaniyo" | – Tabiat obyektlarini bevosita kuzatish imkoniyati;<br>– taqlidiy ko'nikmalarni shakllantirish;<br>– jamoa bilan ishlash imkoniyati;<br>– tabiat obyektlari bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot. |
| <b>Ma'naviy-so'z o'yinlari</b>        | Topishmoqlar, tez aytishlar, maqollar                | – Tabiat hodisalarini o'rganish;<br>– nazariy bilimlarni egallash;<br>– tanqidiy fikrlashning shakllanishi;<br>– nutq ustida ishlash imkoniyati.  |



|   |   |  |
|---|---|--|
| <b>Harakatni predmet boshqaradigan o'yinlar</b> | Loydan narsalar yasash, "Besh tosh" o'yini, arqon tortish, yong'oq o'yini | – Tabiat obyektlarini bevosita kuzatish imkoniyati;<br>– tabiatdagi jismlar bilan yaqindan tanishish imkoniyati;<br>– chaqqonlik, topqirlik, tashabbuskorlik kabi xislatlarning yuzaga chiqish imkoniyati. |
|---|---|--|

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, harakatli milliy o'yinlar uch turga bo'linadi va har bir o'yin turi o'ziga xos pedagogik imkoniyatlarga ega. Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning yosh xususiyatlariga qarab milliy o'yinlar tanlanadi. Kichik guruh bolalari uchun asosan tabiiy materiallardan foydalanish va o'yinlarni ochiq havoda tashkil etish tavsiya etiladi. Chunki ular predmetli-obrazli tafakkur bosqichida bo'lib, tabiat obyektlarini sezgi organlari orqali qabul qilish ular uchun muhim hisoblanadi. O'rta guruh bolalari uchun tabiiy resurslar bilan birgalikda turli murakkablikdagi so'z o'yinlaridan foydalanish mumkin. Katta va tayyorlov guruhi bolalari uchun esa murakkabroq turdagi o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi, biroq ularda ham tabiiy materiallar asosiy o'rinni egallaydi.

Maktabgacha yosh davridagi bolalar nutqini korreksiyalashda qo'llaniladigan pedagogik faoliyatlarni tabiatni o'rganish faoliyatlari bilan integratsion tarzda olib borish tavsiya etiladi. Chunki bu jarayon bolalarga tabiat obyektlarini har tomonlama o'rganish, ularning xususiyatlarini aniqlash hamda ular ustida tajribalar o'tkazish imkonini beradi. Shuningdek, bolalarda faol jamoaviy muloqot almashinuvi shakllanadi. Masalan, "Oq terakmi, ko'k terak?", "Besh tosh", "Kim oladiyo shug'unaniyo" kabi o'yinlar orqali o'simliklarning o'sishi uchun zarur sharoitlarni o'rganish, o'simlik turlarini farqlash, tuproqning xususiyatlarini tadqiq qilish, suv va havoning xususiyatlarini tekshirish imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, milliy o'yinlarni bolalarga o'rgatish orqali ularning vaqtini mazmunli tashkil etish va ta'limiy faoliyatda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy o'yin texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:

1. O'yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak;
2. O'yinlar o'rganilayotgan mavzuning muhim jihatlarini aks ettirishi kerak;
3. O'yinlar bolalar uchun tushunarli, qiziqarli va estetik jihatdan yoqimli bo'lishi kerak;
4. O'yinlar bolalarning faol bilish faoliyatini tashkil etishga xizmat qilishi kerak;
5. O'yinlar bolalar uchun xavfsiz muhit yaratishi hamda ehtiyotkorlik kabi xislatlarni rivojlantirishi zarur.

"O'yin yosh avlodni mehnatga tayyorlaydi", degan fikr ilk bor K.D. Ushinskiy tomonidan ta'riflab berilgan. Olim o'z asarlarida bolalar o'yinining mazmuni ularning hayotdan olgan taassurotlari bilan belgilanib, shaxs shakllanishiga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu fikrni P.F. Lesgaft ham tasdiqlab, bolalar o'z o'yinlarida tevarakatrofdan olgan taassurotlarini aks ettirishlarini qayd etgan <sup>[6, 60-61]</sup>. Shu sababli tabiiy muhitda tashkil etiladigan faoliyatlar bolalar ta'lim-tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarda o'yin faoliyati davomida turli taassurotlar shakllanadi. Har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va predmetlar, shuningdek, bolalar bilan kattalar o'rtasidagi muntazam muloqot o'ziga xos sifatlari bilan boshqa faoliyat turlaridan ajralib turadi. Eng sodda psixik jarayonlardan murakkab psixik jarayonlargacha bo'lgan rivojlanish o'yinlar asosida kechadi. Bola yurgaklay boshlagan davrdanoq o'yin faoliyatiga va u bilan bog'liq qiziqarli jihatlarga e'tibor qaratadi. Hatto ayrim bolalar mustaqil ravishda o'z o'yin jarayonlarini yaratadilar. Bunday o'yinlar bola ulg'aygan sari murakkablashib boradi. Ma'lumki, kattalarning ham sevimli o'yinlari mavjud. Bundan anglashiladiki, inson hayoti mehnat faoliyati, aqliy faoliyat va o'yin faoliyati bilan uzviy bog'liq holda kechadi. Bolalar o'yin faoliyati orqali o'zlarining ta'limga va jismoniy tarbiyaga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda foydalaniladigan "ilk qadam" tayanch dasturida ham asosiy faoliyat turi sifatida o'yindan keng foydalanilgan. Maktabgacha yoshdagi 6–7 yoshli bolaning muhim kompetensiyalari ham ta'lim tashkilotida olib boriladigan maqsadli faoliyat asosida shakllanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- a) kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana olish ko'nikmasi;
- b) o'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi;
- c) ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari hamda me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati;
- d) bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka hamda qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilishda foydalanish <sup>[7]</sup>.

O'yin faoliyati bolalarni fiziologik va psixologik jihatdan garmonik rivojlantirishning muhim vositasidir. Mashhur pedagog A.S. Makarenko bu masalaga doir qimmatli fikrlarni bildirib o'tgan. "Yaxshi o'yin faoliyati, – deydi A.S. Makarenko, – yaxshi bajarilayotgan mehnatga o'xshaydi. Shu sababli bolalar o'yin faoliyatida o'zlarini qanday namoyon etsalar, ulg'ayganlaridan so'ng mehnat faoliyatida ham ko'p jihatdan shunday namoyon bo'ladilar" [8, 295-b.].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirishga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Ma'lumotlarni yig'ishda ilmiy kuzatish, suhbat, pedagogik monitoring hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'limiy faoliyatlarni o'rganish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida bolalarning nutqni eshiting, qabul qilish va takrorlash jarayonlari kuzatilib, ularning kommunikativ faolligi hamda milliy o'yinlar orqali nutqiy rivojlanish darajasi tahlil etildi.

Shuningdek, tarbiyachi-pedagoglar va ota-onalarning bolalar bilan olib borayotgan nutqiy faoliyati, ertak va she'rlarni ifodali o'qib berish jarayonlari ham o'rganildi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda tavsifiy, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Milliy o'yinlar, tez aytishlar, topishmoqlar va xalq og'zaki ijodi namunalari bolalar nutqiga ta'siri pedagogik jihatdan umumlashtirildi. Tadqiqot natijalari asosida bolalarda tinglash hissini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuvlar aniqlandi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Shunday qilib, bolaning har tomonlama yetuk rivojlanishida milliy o'yinlarning ahamiyati yuqoridir.

*Birinchidan*, bolada o'yinga nisbatan tabiiy ehtiyoj mavjud bo'lib, u bola tanasidagi ortiqcha kuchni sarflashga, yetishmayotgan kuchni esa to'plashga yordam beradi.

*Ikkinchidan*, o'yinlar xalq tarixining ajralmas qismi va uning o'ziga xos ko'zgusi hisoblanadi. O'yinlarda insonning turmushi, mehnati, tajribasi, tashvishi, kurashi va yutuqlari o'z aksini topadi. O'yinlar orqali insoniyat tarixi, orzu-o'ylari, muammolari va niyatlarini maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatish mumkin.

*Uchinchidan*, o'yin orqali bolalarning san'atga bo'lgan qiziqishini, ma'naviy sohalarga, jumladan, raqs, tomosha-teatr, musiqa, sport va marosimlarga bo'lgan qiziqishlarini orttirish hamda boladagi qobiliyatlarni aniqlash mumkin.

*To'rtinchidan*, o'yinlar bolalarni sog'lomlashtiruvchi vosita hisoblanadi. Bolalar xalq o'yinlari va musobaqalari yordamida aqlan raso, ruhan tetik, jismonan baquvvat bo'lib rivojlanadi.

*Beshinchidan*, o'yinlar eng samarali tarbiya vositasidir. Bolalar o'yinlar orqali hayotga tayyorgarlik ko'radi, turmushdagi qiyinchiliklarni yengishni mashq qiladi, ish va kurashda g'alaba qilishni o'rganadi.

*Oltinchidan*, o'yinlar bolalarning tafakkurini va nutqining barcha jihatlarini, shu jumladan, obrazli fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, ular bolalarga atrofda hayot, oila, maktabgacha ta'lim tashkilotining kundalik faoliyati va kishilar mehnati bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, o'yinlar xalqning tabiiy va tarixiy ehtiyojlari asosida shakllangan bo'lib, ajdodlar turmushi, mehnati, tajribasi, kurashi va yutuqlarini o'zida aks ettiradigan inson madaniyatining eng qadimiy shakllaridan biridir. Shu bilan birga, ular ko'plab ma'naviy sohalarning manbai, sog'lom avlodni shakllantiruvchi tarbiya vositasi hamda zamondoshlarimizning jismoniy, ruhiy va aqliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Mazkur jarayonlarni samarali amalga oshirish uchun tariximizdan meros bo'lib qolgan o'zbek xalq milliy o'yinlarini hayotga kengroq tatbiq etish, ularni ommalashtirish zarur. Jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali ta'lim va tarbiya jarayoniga milliy o'yinlarni zamonaviy ko'rinishda joriy etish bo'yicha tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, yosh avlod orasida milliy o'yin texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yo'llari yuzasidan taklif va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy o'yinlarni oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, dam olish maskanlarida hamda turli marosim va bayramlarda muntazam tashkil etish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy o'yin texnologiyalaridan foydalanish uchun alohida pedagogik muhit yaratish zarurdir.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Barkamol avlod orzusi. – T.: O'zbekiston, 2020-y. – B. 34, 20–29-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori.
3. Mirziyoyev Sh. "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" // 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni.
4. Mirziyoyev Sh. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" // 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-son farmoni.
5. Asqarova M., Matchonov S., Xudoyberganov M., Qodirova F. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. – T.: O'zbekiston, 2001. – B. 7–11.
6. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – T.: Faylasuflar, 2013. – 295-b.
7. "Ilk qadam" jurnali. – Toshkent, 2021-yil, 5-son, noyabr. – 2-b.
8. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – T.: Faylasuflar, 2013. – 295-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.